

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

PERSONIFIKATSIYA HODISASINING LINGVISTIK TABIATI VA NAZARIY ASOSLARI (SHAROF RASHIDOVNING “KASHMIR QO‘SHIG‘I” ASARI MISOLIDA)

Abdushukurova Gulruh Abduaziz qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti, tayanch doktorant.

e-mail: abdushukurovagulrux@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-9260-2741>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada personifikatsiya hodisasining lingvistik tabiati va nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda personifikatsiyaning semantik, stilistik hamda lingvomadaniy xususiyatlari o‘rganilib, uning badiiy matn tilidagi funksional imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek adabiyotining taniqli yozuvchilaridan biri bo‘lgan Sharof Rashidov asarlarida, xususan Kashmir qo‘shig‘i asari misolida personifikatsiyaning qo‘llanishi ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida personifikatsiya badiiy matnning obrazlilikini oshiruvchi, emotsional-ekspressiv ta‘sirini kuchaytiruvchi hamda muallifning individual uslubini namoyon etuvchi muhim stilistik vosita ekanligi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: personifikatsiya, badiiy matn, stilistika, semantik ko‘chish, lingvomadaniyat, obrazlilik.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЯВЛЕНИЯ ПЕРСОНИФИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ШАРОФА РАШИДОВА «ПЕСНЯ КАШМИРА»)

Абдушукурова Гулрух Абдуазиз кизи

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, Институт языков и культуры народов Центральной Азии, базовый докторант.

Аннотация.

В данной статье рассматриваются лингвистическая природа и теоретические основы явления персонификации. В исследовании анализируются семантические, стилистические и лингвокультурологические особенности персонификации, а также её функциональная роль в художественном тексте. В качестве материала исследования использованы произведения известного узбекского писателя Sharof Rashidov, в частности произведение Kashmir qo‘shig‘i. В результате исследования установлено, что персонификация является важным стилистическим средством, усиливающим образность художественного текста, его эмоционально-экспрессивное воздействие и отражающим индивидуальный стиль автора.

Ключевые слова: персонификация, художественный текст, стилистика, семантический перенос, лингвокультурология, образность, Шараф Рашидов.

THE LINGUISTIC NATURE AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF PERSONIFICATION (A CASE STUDY OF SHAROF RASHIDOV’S THE SONG OF KASHMIR)

Abdushukurova Gulruh Abduaziz qizi

Institute of Languages and Culture of the Peoples of Central Asia, Sharof Rashidov Samarkand State University, Doctoral Researcher.

Abstract.

This article analyzes the linguistic nature and theoretical foundations of personification. The study examines the semantic, stylistic, and linguocultural features of personification and highlights its functional role in literary texts. The research is based on the works of the well-known Uzbek writer Sharof Rashidov, particularly the work Kashmir qo‘shig‘i. The results show that personification is an important stylistic device that enhances the imagery of literary texts, strengthens their emotional and expressive impact, and reflects the author’s individual style.

Keywords: personification, literary text, stylistics, semantic transfer, linguoculture, imagery.

Kirish. Til inson tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy tajribasining eng muhim ifoda vositalaridan biri hisoblanadi. Inson o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini hamda borliq haqidagi tasavvurlarini til orqali ifodalaydi. Ayniqsa, badiiy adabiyot tilning estetik imkoniyatlarini keng namoyon etadigan muhim soha hisoblanadi. Badiiy matn tilining asosiy xususiyatlaridan biri uning obrazlilik bo'lib, bu obrazlilik turli tasviriy vositalar orqali yuzaga keladi. Bunday vositalar qatoriga metafora, metonimiya, epitet, o'xshatish, kinoya va personifikatsiya kabi stilistik hodisalar kiradi.

Personifikatsiya badiiy tasvir vositalari orasida alohida o'rin tutadi. Ushbu hodisa jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari yoki mavhum tushunchalarga insoniy xususiyatlar berish orqali yuzaga keladi. Natijada tasvir yanada jonli, ta'sirchan va obrazli tus oladi. Personifikatsiya nafaqat badiiy tasvirni boyitadi, balki o'quvchining estetik idrokini faollashtiradi hamda matnning emotsional-ekspressiv ta'sirini kuchaytiradi.

Jumladan, psixologiyada shaxsning ruhiy holati tekshirilsa, personologiyada insonning shaxs sifatida shakllanishi, ya'ni personallashtiruvchi o'rganiladi. N. G. Voronovanning qayd etishicha, individ, ijtimoiy subyekt, individual subyekt (individuum) — bularning barchasi inson personallashtiruvining bosqichlari hisoblanadi. Individ ota-ona tomonidan dunyoga keltirilgan "mahsulot"dir, ijtimoiy subyekt esa "atrof-muhit va shart-sharoit" mahsuli hisoblanadi. Inson individual subyekt sifatida "aynan o'zining" mahsulidir, bu ma'noda u *causa sui*, ya'ni "o'zining sababchisi"dir. Demak, personallashtiruvchi inson shaxsining o'z hayoti subyekt sifatida shakllanish jarayonidir.

O'zbek adabiyotida ham personifikatsiya keng qo'llaniladigan tasviriy vositalardan biridir. Bu hodisa ko'plab yozuvchilarning badiiy uslubida muhim o'rin egallaydi. Ana shunday ijodkorlardan biri — Sharof Rashidov bo'lib, u o'z asarlarida tabiat manzaralari, insoniy tuyg'ular hamda ijtimoiy voqelikni obrazli tarzda tasvirlashda personifikatsiya imkoniyatlaridan samarali foydalangan. Bu orqali yozuvchi lingvopersonologiyaning keng imkoniyatlaridan foydalangan. Asarda lingvomadaniy xususiyatlar ochib beriladi. Ayniqsa, uning *Kashmir qo'shig'i* asarida tabiat unsurlari insoniy xususiyatlar bilan ifodalanib, asarning badiiy-estetik ta'siri yanada kuchaytirilgan. Badiiy asar tilini o'rganishda ham bu juda ahamiyatli.

Mazkur maqolaning maqsadi personifikatsiya hodisasining lingvistik tabiati va nazariy asoslarini tahlil qilish hamda Sharof Rashidov asarlari misolida uning badiiy matn tilidagi funksional imkoniyatlarini o'rganishdan iborat. Shu asosda personifikatsiyaning semantik, stilistik va lingvomadaniy xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Personifikatsiya tushunchasining ilmiy talqini.

Til inson tafakkuri va madaniyatining eng muhim ifoda vositasi hisoblanadi. Til yordamida inson o'zining ichki kechinmalari, dunyoqarashi, atrof-muhit haqidagi tasavvurlari hamda estetik qarashlarini ifodalaydi. Ayniqsa, badiiy adabiyot tilning estetik imkoniyatlarini namoyon etadigan muhim soha sifatida alohida ahamiyatga ega.

Ma'lumki, personologiyani fan sifatida shakllantirish g'oyasi ilk bor N. S. Trubetskoy tomonidan o'rta tashlangan. Uning fikricha, shaxs takrorlanmaydigan sifatga ega, shu bois u ilmiy va falsafiy tadqiqotlar predmeti bo'la oladi. Bunda shaxs mavjudligining umumiy qonuniyatlari, uning tashqi olamga, kishilarga munosabati, shaxs sifatida shakllanishi kabilar tekshiriladi. Olim bu muammolar bilan turli fanlar shug'ullanishini, ammo shaxsni o'rganuvchi maxsus fan — personologiyani yaratish lozimligini, ushbu fanning mavjud emasligi ilmiy tafakkurdagi bo'shliq ekanligini qayd etgan.

Badiiy matn tilining asosiy xususiyatlaridan biri uning obrazlilikidir. Obrazlilik esa turli xil tasviriy vositalar orqali yuzaga keladi. Badiiy tasvir vositalari badiiy matnning semantik, estetik hamda emotsional imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bunday vositalar qatoriga metafora, metonimiya, epitet, o'xshatish, kinoya va personifikatsiya kabi hodisalar kiradi. Ushbu vositalar orqali muallif borliqni obrazli tarzda tasvirlaydi hamda o'quvchiga kuchli estetik ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutgan Sharof Rashidov ijodi ham alohida ilmiy tahlilni talab etadi. Sharof Rashidov nafaqat siyosiy arbob, balki o'zbek adabiyotida o'ziga xos uslub yaratgan yozuvchi sifatida ham tanilgan. Uning roman va qissalarida xalq hayoti, inson ruhiyati hamda davr muammolari badiiy tasvir orqali yoritiladi. Ushbu jarayonda personifikatsiyaning qo'llanilishi muhim stilistik vosita bo'lib xizmat qiladi. Sharof Rashidov asarlarida personifikatsiya asosan tabiat, atrof-muhitni ijtimoiy hayot bilan bog'lab tasvirlashda keng qo'llanilgan. Masalan, yozuvchining *Kashmir qo'shig'i* nomli asari boshdan oyoq personifikatsiyaning yorqin namunasi desak bo'ladi. Sababi, bu asarda yozuvchi insonga xos bo'lgan ijobiy sifatlarni gullar, qushlar, bulut, quyosh kabilar orqali tasvirlaydi. Salbiy insoniy sifatlarni esa bo'ron, chaqmoq kabilarga ko'chiradi. Quyida asardan bir nechta misollar keltirib o'tamiz. "Cho'qqilari osmon bilan o'pishgan tog'lar etagidan qaynab chiqqan zilol suv ko'z ilg'amas irmoqlar va buloqlardan oqib tushadi-da, keng, go'zal soy tublarida sho'x va yoqimli kuylab, vodiylarga ravona bo'ladi." [1, 5-bet]

Personifikatsiya badiiy tasvir vositalari ichida muhim o'rin tutadi. Bu hodisa jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari yoki mavhum tushunchalarga insoniy xususiyatlar berish orqali yuzaga keladi. "Nargizning qalbidagi ishonch barcha gullarni hayratda qoldirdi. Ular angladilarki, shu ishonch mavjud ekan, uning sevgisi ulg'ayib, tomir yoyib, qudratli kuchga aylana beradi." [1, 10-bet] Personifikatsiya natijasida jonsiz yoki abstrakt tushunchalar go'yoki jonli mavjudot sifatida tasvirlanadi. Bu esa matnning obrazlilik darajasini oshiradi hamda o'quvchining tasavvurida jonli manzara hosil qiladi. Tilshunoslikda personifikatsiya ko'pincha semantik ko'chish hodisalaridan biri sifatida talqin qilinadi. Chunki bu jarayonda so'zning asosiy ma'nosi saqlanib qolgan holda unga yangi semantik komponent qo'shiladi. Natijada til birliklari yangi semantik imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Personifikatsiya hodisasi inson tafakkurining qadimiy xususiyatlari bilan ham bog'liqdir. Qadim zamonlarda insonlar tabiat hodisalarini jonli mavjudot sifatida tasavvur qilganlar. Masalan, shamolning esishi, quyoshning chiqishi yoki daryoning oqishi kabi hodisalar ko'pincha jonli mavjudotlarning harakatiga o'xshatib talqin qilingan. Bu tasavvurlar keyinchalik badiiy adabiyotda stilistik vosita sifatida shakllangan. Shu jihatdan personifikatsiya nafaqat stilistik vosita, balki inson tafakkurining obrazli fikrlash xususiyatini aks ettiruvchi hodisa sifatida ham qaraladi.

Personifikatsiyaning kelib chiqishi va shakllanishi. Personifikatsiya inson tafakkurining qadimiy qatlamlariga borib taqaladi. Antropologik va madaniy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qadimgi jamiyatlarda insonlar tabiat hodisalarini

jonli mavjudot sifatida tasavvur qilganlar. Bu hodisa ilmiy adabiyotlarda antropomorfizm deb ataladi. Antropomorfizm — insoniy xususiyatlarni tabiat hodisalari yoki jonsiz predmetlarga ko'chirish jarayonidir. Personifikatsiya aynan shu jarayonning badiiy til shaklida namoyon bo'lishidir. Qadimgi mifologik tafakkurda quyosh, oy, shamol, yer yoki suv kabi tabiat unsurlari ko'pincha inson yoki ilohiy mavjudot sifatida tasvirlangan. Bunday tasavvurlar keyinchalik badiiy adabiyotda obrazli ifodalar shaklida saqlanib qolgan. "Faqat shunisi esidaki, kunlardan bir kun tong mahali, quyosh, saxovatli quyosh, ilk yog'dulari bilan yonog'ini baland-baland qoyalarga, teng ko'm-ko'k teraklar boshiga siypab, Nargizlar bog'iga nazar tashlaganda, ana shu quyosh yog'dulari poyondozidan u tushib kelgan edi." [1, 14-bet]

Personifikatsiyaning shakllanishida xalq og'zaki ijodining ham o'rni katta. Ertaklar, afsonalar, dostonlar va maqollarda ko'pincha jonsiz predmetlar yoki tabiat hodisalari jonlantirilgan holda tasvirlanadi. Masalan, daraxtlarning gapirishi, shamolning kuylashi yoki daryoning shivirlashi kabi tasvirlar xalq og'zaki ijodida keng uchraydi. Bu hodisa badiiy adabiyotga ham o'tib, mualliflarning individual uslubini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. "Bu baxt maskanini zimdan kuzatib, ko'rolmay hasad olovida qovurilib yurgan omonlik dushmanlari chidab turolmadi, Nargiz bilan Bambur baxtiga, omonlik diyori baxtiga g'ashlari keldi, to'yni buzmoqqa shaylandilar, ularning yo'llariga ayg'oqchilar qo'yishdi, ishni har kuni erta tongdan ular yo'liga nurdan poyondoz tashlab uchratuvchi quyosh yo'lini to'sishdan boshladilar." [1, 17-bet]

Personifikatsiyaning semantik mohiyati. Personifikatsiya semantik nuqtai nazardan ko'chma ma'no hosil qiluvchi vositalardan biridir. Ko'chma ma'no so'zning asosiy ma'nosi bilan bog'liq holda yangi semantik mazmun hosil bo'lishi jarayonini anglatadi. Personifikatsiya jarayonida jonsiz predmet yoki tabiat hodisasiga inson faoliyatiga xos harakat yoki sifat beriladi. Natijada so'zning semantik strukturasida yangi komponent paydo bo'ladi. Semantik jihatdan personifikatsiya quyidagi elementlar asosida shakllanadi:

- jonsiz predmet yoki tabiat hodisasi
- insoniy harakat yoki sifat
- semantik o'xshashlik

Bunday semantik transformatsiya natijasida jonsiz predmet yoki hodisa inson faoliyatiga o'xshash tarzda tasvirlanadi. "Nargizni o'rab turgan gullar, dugonalari, qushlar, qumrilar, bulbullar, jamiki giyohlar gurillab, chug'ullab, chapak chalishdi." [1, 20-bet]

Personifikatsiya til birliklarining semantik imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu hodisa orqali so'zlar nafaqat o'zining asosiy ma'nosini, balki qo'shimcha estetik ma'nolarni ham ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Personifikatsiyaning stilistik xususiyatlari. Personifikatsiya badiiy matn tilida stilistik vosita sifatida muhim o'rin tutadi. Stilistika til birliklarining ekspressiv hamda estetik imkoniyatlarini o'rganadigan fan sohasi hisoblanadi. Badiiy matnda stilistik vositalar muallifning estetik niyatini ifodalashga xizmat qiladi. Personifikatsiya ham shunday vositalardan biri bo'lib, u matnning emotsional-ekspressiv ta'sirini kuchaytiradi. Personifikatsiya orqali muallif jonsiz predmetlarni jonlantiradi, natijada tasvir yanada jonli va ta'sirchan bo'ladi. Bu esa o'quvchining tasavvurida aniq obraz hosil qiladi.

Badiiy matnda personifikatsiya quyidagi stilistik funksiyalarni bajaradi:

- tasvirning obrazlilikini oshiradi
- matnning emotsional ta'sirini kuchaytiradi
- muallifning individual uslubini namoyon qiladi
- o'quvchining estetik idrokini faollashtiradi

Shu sababli personifikatsiya badiiy matn tilining muhim stilistik vositalaridan biri hisoblanadi.

Personifikatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari. Personifikatsiya faqat stilistik vosita bo'lib qolmay, muayyan xalqning madaniy dunyoqarashini ham aks ettiradi. Har bir xalq tabiat va atrof-muhitni o'ziga xos tarzda idrok etadi. Shu sababli badiiy matnda qo'llaniladigan personifikatsiyalar ham milliy mentalitet bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. "Bu gullarning boshqa chamanlardagi dugonalari qora libos kiyib, aza tutardilar." [1, 27-bet] Ushbu gapda "aza tutmoq" komponenti "qora libos" kiyish bilan yanada aniqlashtirilmoqda. Ma'lumki, turkiy xalqlar orasida qora libos kiyish biror yaqin insonning vafoti munosabati bilan "aza tutish" maqsadida amalga oshiriladi. Matndagi ushbu gapda esa aynan shu personifikatsiya orqali lingvomadaniy xususiyatlar ham aks etmoqda. Lingvomadaniyat til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadigan ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Bu yo'nalish til birliklarida aks etgan madaniy mazmunni tahlil qiladi. Personifikatsiya ham lingvomadaniy hodisa sifatida muhim ahamiyatga ega. Chunki u orqali muallif muayyan xalqning tabiatga bo'lgan munosabatini, estetik qarashlarini hamda madaniy tasavvurlarini ifodalaydi. O'zbek badiiy tafakkurida tabiat ko'pincha jonli mavjudot sifatida tasvirlanadi. Yer, suv, tog', shamol yoki daraxt kabi tabiat unsurlari insoniy xususiyatlar bilan ifodalanadi. Bu holat o'zbek xalqining tabiat bilan uyg'unlikda yashash an'analari bilan bog'liq. "Oromgoh to'yga tayyorlanar edi." [1, 17-bet] Ushbu gapda personifikatsiya orqali metonimiya ham yuzaga kelmoqda. O'zbek xalqiga xos bo'lgan an'analardan biri to'y bazmiga uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rish hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan misolda ham aynan o'zbek xalqiga xos bo'lgan lingvomadaniy xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin. Shu sababli ham personifikatsiya o'zbek badiiy matn tilining muhim lingvomadaniy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Buni Sharof Rashidovning boshqa asarlarida ham ko'rish mumkin.

Personifikatsiyaning funksiyalari. Personifikatsiya badiiy matnda bir nechta funksional vazifalarni bajaradi.

Obraz yaratish funksiyasi. Personifikatsiya yordamida muallif jonsiz predmetlar va tabiat hodisalarini jonlantiradi. Bu esa badiiy tasvirni yanada ta'sirchan qiladi. "Olamda inson qo'li va aql-zakovati bilan yaratilgan qancha go'zallik, tabiatda qancha boylik va chiroy mavjud bo'lsa, Bo'ron bularning hammasini yutib yuboraman deb hamla qilardi." [1, 27-bet] Yozuvchi Bo'ronga nisbatan "yutib yubormoq" birikmasini qo'llash orqali salbiy obraz yaratadi.

Emotsional-ekspressiv funksiyasi. Personifikatsiya matnga hissiy rang beradi va o'quvchining ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadi. "Nargizni o'rab turgan gullar, dugonalari, qushlar, qumrilar, bulbullar, jamiki gilyohlar gurillab, chug'ullab, chapak chalishdi." [1, 20-bet] Keltirilgan ushbu misolda "chapak chalishdi" personifikatsiyasi orqali yozuvchi o'quvchiga asardagi qahramonlarning xursandchilik kayfiyatini ochib beradi. Bu emotsional-ekspressivlikka misol bo'la oladi.

Estetik funksiyasi. Personifikatsiya matnning badiiy qiymatini oshiradi hamda o'quvchida estetik zavq uyg'otadi.

Kognitiv funksiyasi. Personifikatsiya orqali inson atrof-muhitni obrazli tarzda idrok etadi va tushunadi. "– Sevgi azobi yuraklarimni tirnaydi, Lolajon, – deb javob berdi Nargiz." [1, 21-bet] "Yuraklarni tirnamoq", ya'ni azob bermoq, personifikatsiyasi orqali qahramon holati yanada obrazli tarzda ochib berilmoqda.

Personifikatsiya boshqa badiiy tasvir vositalari bilan ham yaqin aloqada bo'ladi. Ayniqsa, metafora bilan o'zaro bog'liqligi kuchli. Metafora predmetlar o'rtasidagi o'xshashlik asosida yuzaga keladigan semantik ko'chish hodisasidir. Personifikatsiya ham o'xshashlik asosida shakllanadi, biroq unda insoniy xususiyatlarning ko'chirilishi muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, personifikatsiya epitet, o'xshatish va kinoya kabi stilistik vositalar bilan ham birgalikda qo'llanilishi mumkin. Bu holat badiiy matnning obrazlilik darajasini yanada oshiradi.

Xulosa

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, personifikatsiya badiiy matn tilining muhim tasviriy vositalaridan biri bo'lib, u jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari yoki mavhum tushunchalarga insoniy xususiyatlar berish orqali yuzaga keladi. Ushbu hodisa til birliklarining semantik imkoniyatlarini kengaytiradi hamda badiiy tasvirning obrazlilik darajasini oshiradi. Personifikatsiya orqali muallif o'quvchi tasavvurida jonli, ta'sirchan manzara yaratadi va matnning emotsional-ekspressiv kuchini kuchaytiradi.

Tadqiqot jarayonida personifikatsiyaning lingvistik tabiati semantik, stilistik hamda lingvomadaniy jihatdan tahlil qilindi. Semantik nuqtai nazardan u ko'chma ma'no hosil qiluvchi vositalardan biri bo'lib, jonsiz predmet yoki hodisalarga insoniy harakat va sifatning ko'chirilishi orqali yuzaga keladi. Stilistik jihatdan esa personifikatsiya badiiy matnning estetik qiymatini oshiradi, obraz yaratishga xizmat qiladi va muallifning individual uslubini namoyon etadi. Lingvomadaniy nuqtai nazardan esa personifikatsiya muayyan xalqning dunyoqarashi, tabiatga munosabati hamda madaniy tasavvurlarini aks ettiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yozuvchi Sharof Rashidov asarlarida personifikatsiya keng va mahorat bilan qo'llanilgan. Ayniqsa, *Kashmir qo'shig'i* asarida tabiat unsurlari, gullar, qushlar, quyosh, shamol kabi obrazlar insoniy xususiyatlar bilan tasvirlanib, asarning badiiy-estetik ta'sirini kuchaytirgan. Ushbu personifikatsiyalar orqali muallif insoniy tuyg'ularni, ijtimoiy munosabatlarni hamda ruhiy holatlarni obrazli tarzda ifodalagan. Shuningdek, personifikatsiya asarda obraz yaratish, emotsional-ekspressiv ta'sirni kuchaytirish, estetik zavq uyg'otish hamda kognitiv idrokni faollashtirish kabi muhim funksiyalarni bajarishi aniqlangan.

Shuningdek, tadqiqot natijalari personifikatsiya hodisasining o'zbek badiiy matn tilida muhim lingvistik va lingvomadaniy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Personifikatsiya orqali muallif nafaqat obrazli tasvir yaratadi, balki xalqning milliy mentaliteti, estetik qarashlari hamda tabiatga bo'lgan munosabatini ham ifodalaydi. Shu sababli personifikatsiya o'zbek badiiy nutqining muhim stilistik vositalaridan biri sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytganda, personifikatsiya hodisasi badiiy matn tilining obrazlilik darajasini oshiruvchi, emotsional-ekspressiv ta'sirni kuchaytiruvchi hamda muallifning individual uslubini shakllantiruvchi muhim lingvistik vosita hisoblanadi. Sharof Rashidov asarlarida ushbu vositaning faol qo'llanilishi yozuvchining badiiy tafakkuri va tasviriy mahoratini yaqqol namoyon etadi. Bu esa personifikatsiya hodisasini o'zbek badiiy matn stilistikasi doirasida chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rashidov Sh. *Kashmir qo'shig'i*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
2. Mahmudov N. *O'zbek tili stilistikasi*. – Toshkent: Fan, 2012.
3. Nurmonov A. *Til va nutq nazariyasi*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.